



**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA
MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**ANDIJON
MASHINASOZLIK
INSTITUTI**



**UZAUTO MOTORS
AKSIONERLIK
JAMIYATI**

**Andijon mashinasozlik instituti tashkil
topganligining 10 yilligi va O'zbekiston
avtomobil sanoati tashkil topganligining 25
yilligi munosabati bilan o'tkazilgan
“O'ZBEKISTON VA AVTOMOBIL
SANOATI: FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQUARISH INTEGRATSIYASI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
anjumanning**

MATERIALLARI

I, II- sho'ba

Андижон- 2021

Xalqaro ilmiy- amaliy konferentsiya to'plami

TAHRIR XAY'HATI:

Xay'at raisi:

U.M.Turdialiev- t.f.d., katta ilmiy xodim, Andijon mashinasozlik institutining rektori.

Mahsul muharir:

U.A.Madraximov- i.f.d., dotsent, Andijon mashinasozlik institutining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori.

I- SHo'ba: Avtomobilsozlik va traktorsozlik:

Rais: T.O.Almatayev- "Avtomobilsozlik" kafedrasining professori, t.f.n.;

Kotib: I.B.Erkinov- "Avtomobilsozlik" kafedrasining assistenti.

II- SHo'ba: Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi va servis xizmati:

Rais: L.Y.Bakirov- "Yer usti transport tizimlari" kafedrasining mudiri, PhD;

Kotib: X.T.To'ychiev- "Yer usti transport tizimlari" kafedrasining assistenti.

Texnik muharrirlar:

M.Sattarov- "MSMSM" kafedrasining katta o'qituvchisi;

N.U.Qodirov- "TMJ" kafedrasining doktoranti;

O'.Axmadaliev- "MEM" kafedrasining doktoranti;

Z.U.Boyxonov- "EEE" kafedrasining doktoranti.

№	1- sho'ba	Bet
1	Турдиалиев У.М., Алматаев Т.О. Ўзбекистон отида таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини таъминлашга оид илғор тажрибалар.	9
2	Алматаев Т.О., Турсунов О. Интеграционные процессы в образовании как факторы качества подготовки специалиста.	13
3	Абдазимов.А.Д. Атажанова.М.М. Организационно-методические основы комплексной, интегрированной базовым предприятием квалификационных практик студентов бакалавриата.	17
4	Каримходжаев.Н., Абдуллаев.А.С. Влияние дорожно-климатических условий эксплуатации на процесс изнашивания деталей автотранспортных средств.	20
5	Каримходжаев Н, Дадабоев Р, Исманов М. Ички ёнув двигателларида водород ёкилгисидан фойдаланиш.	23
6	Каримходжаев Н., Дадабоев Р., Исманов М. Ички ёнув дивигателларда детонацияли ёниш.	26
7	Қаюмов.Б.А., Рахматжонов.М. Автотранспорт воситаларини синаш турлари.	29
8	Қаюмов.Б.А., Рахматжонов.М. Синовларни ўтказишда фойдаланиладиган техник воситалар.	31
9	Дадаходжаев А., Ғойназаров С., Яшаров М. Чизел-культиватор тишларини мақбул жойлаштириш.	35
10	Мирзаев И.Г., Дадаходжаев А., Обидов Б.О. КМХ-65 русумли минерал ўғит микдорлагичнинг технологик иш жараёнини тахлили.	39
11	Қаюмов.Б.А., Шихназаров.Д. Маҳаллий автомобиллар учун глонасс тизими базасида миллий навигатсия тизимини ташкиллаштириш имкониятлари.	44
12	Қаюмов.Б.А., Отаназаров.М. Ўзбекистонда автомобиллар учун тезкор ёрдам гуруҳларини чақириш тизими. (EVA UZ)	47
13	Qayumov B.A., Sotimov X. Ўзбекистон автомобилсозлик саноатида маҳаллий пластик материаллардан фойдаланишни такомиллаштириш.	50
14	Қаюмов.Б.А., Отаназаров.М. Ўзбекистонда автомобиллар учун тезкор ёрдам гуруҳларини чақириш тизими. (Eva uz)	
15	Назаров О. Автомобил деталларини маҳаллийлаштиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш тахлили.	53
16	Косимов.И. Ишкалагич турлари ва юза сиртларини эксцентрик ротацион шётка билан силликлаш кўрсаткичларини самарадорлигини ошириш	57
17	Вохобов.Р., Аминбоев.А. Текисликлар берилиши. қаттиқ жисм моделлаш.	61
18	Вохобов.Р. Ички ёнув двигателлари иш режимлари ва уларга қўйиладиган талаблар.	64
19	Ёқубов.Ё., Эркинов.И., Раҳимжонов.А. Лойиҳалашда уч ўлчамли геометрик моделлаш 3д координаталар тизими	68
20	Ёқубов Ё., Эркинов.И. Лойиҳалашда салс технологиялари.	70
21	Абдуллаев А., Абдурахманов Д. Роль современных полимерных материалов и трибологии в автомобилестроении.	73
22	Каримходжаев Н., Нўмонов М., Эргашалиев Ш. Автомобилларда қўлланиладиган ёнилғиларнинг экологик синфининг тахлили	75
23	Юлдашев А., Исамов С., Софиев С. Трактор, пулуг ва чуқур юмшатгичларни ишга тайёрлаш ва созлаш	78

- geodezik zichlash tarmoqlari (GZT).

Adabiyotlar

1. R.X. Djuraev, Sh.Yu.Djabbarov, Umirzakov B.M “Axborot uzatish texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma, Tosh, 2008-y.
2. “GPS” competition book, America 2019.
3. “Для системы ЭВАК ищут единого оператора” Видио материал Казакистан 2020 г.
4. Ф.С.Юрьевич,З.К.Александрович,П.В.Васильевич”Система спутникового мониторинга рыболовства.Современное состояние и перспективы развития”.Москва 2008.
5. widoc.ru.

O‘ZBEKISTONDA AVTOMOBILLAR UCHUN TEZKOR YORDAM GURUHLARINI CHAQIRISH TIZIMI (EVA UZ)

*Qayumov B.A.-PhD;
Otanazarov M.- magistr,
Andijon mashinasozlik instituti*

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, har yili qariyb 1.4 millionga yaqin odam yo‘l transport hodisasi qurboniga aylanadi. O‘zbekistonda birgina 2020 yilda 7000 ga yaqin yo‘l transport hodisalari sodir etilgan bo‘lib, ularda 1600 dan ortiq odam vafot etgan va eng achinarlisi shundan 400 nafardan ortiq inson o‘z vaqtida tez tibbiy yordam ko‘rsatilmagani tufayli vafot etgan.

Bundan tashqari sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari oqibatlarida kelib chiqadigan muammolar umumiy zararlanishning 30-40% ini tashkil qilmoqda, ya’ni avtomobilga ham o‘z vaqtida maxsus evakuatsion xizmat ko‘rsatilmaganligi tufayli avtomobillarning yonib ketishi, portlashi kabi holatlar ko‘p kuzatilmoqda. Xususan hozirda O‘zbekistonda 95% avtomobillarda siqilgan gaz yonilg‘isidan foydalaniladi. Bu esa xavf darajasini bir necha barobar oshirib yuboradi.

Shu sababdan bu sohadagi muammolarni yechish hozirgi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida ijobiy ishlar olib borilayotganiga qaramasdan, joriy holat ushbu sohani takomillashtirish, xorijiy

davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va o'rganilgan bilimlar asosida ushbu sohada yangicha innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda.

O'zbekistonda bu kabi muammolarni tizimli hal qilish maqsadida evakuatsiya tizimini bir tizimga birlashtirib, ular o'rtasida aloqani ta'minlash va evakuatsiya qilish tizimini takomillashtirishni taklif qilamiz.

Tizim tarkibiga quydagicha tuziladi

1-jadval

№	Tashkilot nomi	Zaruriy texnikalar
1	Tez tibbiy yordam guruhi	Tez tibbiy yordam jihoz va qurilmalari(zarur hollarda ko'chma shifoxona bilan)
2	Favqulotda vaziyatlar bartaraf etish guruhi (FVV) 1.Qutqaruv guruhi 2.O't ochirish guruhi 3.Avtomobillar uchun evakuatorlar	Zaruriy barcha jihoz va texnikalar()
3	YHXBB maxsus guruhi	Zaruriy barcha texnikalar

Biz ushbu maxsus guruhlarini chaqirishning innovatsion yo'lini taklif qilmoqdamiz. Tizimni Eva UZ (*Evakuatsiya in Uzbekistan*) deb nomladik

Eva UZ tizimi quyidagicha ishlaydi:

–avariya holatlari haqida xabarlarni qabul qiluvchi operatorlik guruhi tashkil qilinadi.

–avariya holati haqida xabar berish uchun avtomobilga bort telefon o'rnatiladi

–avariya haqida 2 usulda xabar beriladi:

- Avtomotik ravishda avtomobilga o'rnatilgan xabarlagich datchigi orqali

- Avtomobilga o'rnatilgan SOS xabarlagichi orqali haydovchi ishtirokida

–operator xabarni qabul qilish vaqtida avtomobilning joylashgan o'rnini aniqlaydi va bir necha soniyalar ichida bu joylashuv nuqtasini operativ yordam guruhlariga jo'natadi.

–operativ yordam guruhlarini bir umumiy platformaga ulangan holda doimiy online rejimda xabarlarni qabul qilib turadilar

–qabul qilingan joylashuv nuqtasini aniq belgilab olgan operativ yordam guruhlarini ob'yektni joylashgan joyini aniq bilgan holda eng qulay yo'l orqali evakuatsiya nuqtasiga yetib boradilar

Ma'lumot uchun bu sohadagi hozirda amalda bo'lib turgan va biz taklif qilayotgan tizimni solishtiramiz

2-jadval

№	Bajariladigan ishlar bosqichlari	Amaldagi tizim talab qilinadigan vaqt (min)	<u>EvaUZ</u> tizimida talab qilinadigan vaqt (min)	Effektivlik (Unumdorlik) (min)
1	Halokat haqida xabar berish	Tez yordam – 6 min FVV - 8 min O't o'chirish – 8 min YHHB - 5 min	Eva UZ – 3 min	24 min
2	Avariyaning joylashuv nuqtasini aniqlash	Tez yordam – 3 min FVV - 3 min O't o'chirish – 3 min YHHB - 3min	Eva UZ – 3 min	9 min
3	Eng maqbul yo'lni tanlash	Tez yordam – 1 min FVV - 1 min O't o'chirish – 1min YHHB - 1min	Eva UZ– 0.5 min	3.5 min
4	Avariya nuqtasiga yetib kelish	Tez yordam – 7 min FVV - 11 min O't o'chirish – 7min YHHB - 5min	Eva UZ – 15min	15 min

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki: hozirgi kunda O'zbekistonda yo'l transport hodisasidan keyingi holatlarda insonlarni tezkor evakuatsiya qilish hamda tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish zarurligini talab qilinmoqda.

Avariya uchragan avtomobilni o'zi ham juda xavfli ahvolga kelib qoladi ko'p hollarda. Xususan hozirgi avtomobillarimizning 90% i siqilgan metan gazida harakatlanadi. Bunday holatda avariya uchragan avtomobilga fuqarolarning yaqinlashishi inson hayoti uchun juda katta xavflarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarni FVV ning maxsus qurollangan va himoyalangan xodimlari bartaraf etishlari zarur va shart deb hisoblayman. Biz taklif etayotgan Eva UZ tizimi bu kabi bir qancha muammolarni bartaraf etish imkonini beradi

Biz istiqbolda operativ yordam guruhlarini Eva UZ tizimining ba'zasida tashkil qilishni rejalashtirmoqdamiz .

Bunda tizim tarkibida:

- tez tibbiy yordam guruhi
- maxsus jihozlangan evakuatsiya guruhi

- o't o'chirish guruhi
- operatorlik guruhi
- truck evakuatsiya guruhi
- vertalyot evakuatsiya guruhi

kabi bir qancha guruhlari tashkil qilishni rejalashtirmoqdamiz.

Eva UZ loyihasi O'zbekiston evakuatsiya sohasida yangi evolutsiya davrini boshlab berishi zarur. Zero eng muhimi inson hayoti va uning salomatligi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. “EVAK” taqdimot ishi, kosmik texnika va texnologiyalar instituti, Astana 2016-yil.
2. R.X. Djuraev, Sh.Yu.Djabbarov, Umirzakov B.M “Axborot uzatish texnologiyalari” o'quv qo'llanma, Tosh, 2008-y.
3. “GPS” competition book, America 2019.
4. @ xushnudbek telegram kanali “ 4 oy ichida yo'llarda 557 kishi halok bo'ldi” post 16.05.2020.
5. “Для системы ЭВАК ищут единого оператора” Видио материал Казакистан 2020 г.
6. Evak.ru

O'ZBEKISTON AVTOMOBILSOZLIK SANOATIDA MAHALLIY PLASTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Qayumov B.A.-PhD;
Sotimov X.- magistr,
Andijon mashinasozlik instituti*

Hozirgi payta O'zbekiston avtosanoatida polimer materiallardan foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mashinasozlik texnologiyasida polimer materillarni yangi turlarini ishlab chiqish va uni texnologik parametrlarini talab darajasida bo'lishini taminlash, va uni O'zbekistonda ishlab chiqarish juda zarur xisoblanadi .

O'zbekiston avtosanoatida avtomobil baklari UZ-SaeMyung Co kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu korxonaning ta'sischilari 50% UzAuto, , 50%